



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 13-dekabr, shanba,
141 (24.171)-son

O'zbek xalq
maqoli

El
yaxshilikni
unutmas

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

Dekabr oyining ikkinchi yakshanbasi O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi xodimlari kuni



FIDOYILAR MEHNATI E'TIROF ETILDI

Prezidentimiz e'lon qilingan farmonga ko'ra, qishloq xo'jaligi xodimlari kuni munosabati bilan soha rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan yurtdoshlarimizdan bir guruhi davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. Jumladan, viloyatimizdan 7 nafar fidoyilar yuksak mukofotlarga loyiq ko'rildi.

Hokimlikda davlat mukofotlarini topshirish marosimi o'tkazildi.

Viloyat hokimi Adiz Boboyev fidokorona mehnati bilan elimiz dasturxonini to'kin-sochinligini ta'minlash, viloyatimiz iqtisodiyotini mustahkamlashga qo'shayotgan salmoqli hisssasi uchun davlatimiz rahbari tomonidan e'tirof etilgan yurtdoshlarimizni tabrikhladi. Ular singari qishloq xo'jalik ilmi bilimdonlari, dehqon va fermerlar, bog'bon va chorvadorlarning zahmatli mehnati tufayli bu yil Samarqandda sohaning barcha tarmoqlarida yuqori o'sish suratlari ta'minlangani, g'alla va paxta hosildorligi

oshib, rentabellik darajasi o'sganini ta'kidhladi. Sohaga zamonaviy agrotexnologiyalarning keng joriy etilayotgani va to'g'ri nav, serhosil urug'lar tanlanishi tufayli meva-sabzavot, poliz ekinlari har yilgidan ko'p yetishtirilib, sohada eksport hajmi oshganini qayd etdi.

Marosimda A.Boboyev davlatimiz rahbari nomidan orden va medallarni tantanali topshirdi.

– Qariyb yigirma yildan buyon fermerman, – deydi Past Darg'om tumanidagi “Eldor” chorvachilik fermer xo'jaligi boshlig'i, “Shuhrat” medali sohibi Erkin Sherov. – Faoliyatimizni sanoqligina chorva mollari boqish bilan boshlagandik. Bugun ko'p tarmoqli xo'jalikka aylanib, parrandachilikni, go'sht va sut yo'nalishida qoramol boqishni yo'lga qo'ydik. Xorijdan nasldor chorva olib kelib ko'paytiraypmiz. Bunga davlatimiz tomonidan yaratib berilgan imkoniyatlar, imtiyoz va qulayliklar tufayli erishdik. Xo'jaligimizning ana shu natijalari e'tirof etilib, davlat mukofoti bilan taqdirlanganimdan butun jamoamiz xursand. Buning uchun Prezidentimizga minnatdorlik bildiramiz.

Agrar tarmoq eng daromadli sohaga aylanmoqda

Davlatimiz rahbarining qishloq xo'jalik xodimlari kuni oldidan soha vakillari bilan uchrashuvida tarmoqdagi yutuqlar e'tirof etildi. Jumladan, joriy yilda ilk bor respublikamizda paxtachilikda ilm-fan yutuqlari va ilg'or agrotexnologiya olib kirlgani, yuqori unumdor xorijiy navlar ekilgani hisobiga 875 ming gektar maydonda 4 million tonnaga yaqin xirmon yaratildi. Ilk bor paxtada o'rtacha hosildorlik 46 sentnerga yetdi.

Jumladan, viloyatimizda ilg'or intensiv agrotexnologiyalarni qo'llagan holda 60 ming gektar maydonda g'o'za parvarish qilinib, 265 ming tonnadan ortiq paxta xomashyosi yig'ishtirib olindi. Hosildorlik o'rtacha 44,2 sentnerni tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan 12,7 sentner ko'p hosildorlikka erishildi. Tumanlarda fermer xo'jaliklarimiz gektaridan 74,5 sentnergacha hosil oldi.

Yetishtirilgan paxta xomashyosini to'liq mexanizatsiya yordamida terib olishga o'tish maqsadida joriy yilda Xitoydan 74 dona yuqori unumli paxta terish mashinalari olib kelindi (o'tgan yil 44 ta olib kelingan). Joriy mavsumda 162 ming tonna (61 foiz) paxta xomashyosi 118 ta mashina yordamida terib olindi. Kelgusi yilda yana qo'shimcha terim mashinalari olib kelish hisobiga paxtani to'liq mexanizatsiya yordamida terib olishga o'tamiz.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida g'allakorlarimiz yangi mahalliy navlar va biotexnologiya orqali bu yil 8 million 400 ming tonna xirmon yaratib, o'rtacha hosildorlik 85 sentnerga yetganini bildirdi. Har gektar yerdan 100 sentnerdan hosil olgan fermerlar 3,5 mingdan oshdi, 825 ming tonnadan ortiq hosil yetishtirildi va o'rtacha hosildorlik 87,6 sentnerni tashkil qildi.

Hozirgi kunda dehqonchilikda suv resurslaridan oqilona foydalanish, tejamkor texnologiyalarni joriy qilgan holda mahsulot yetishtirish dolzarb bo'lib bormoqda. Shu bois dehqonlarimiz suv tejovchi texnologiyalarni joriy etgan holda dehqonchilik qilishga katta e'tibor qaratmoqda.

Suv resurslaridan samarali foydalanish maqsadida 30,1 ming gektar maydonda yomg'irlatib sug'orish tizimi joriy qilinishi rejalashtirilgan. Kelgusi yil ushbu maydonlardan jami 747 ming tonna hosil olish va hosildorlikni 90 sentnerga yetkazish ko'zda tutilgan.

INNOVATSION DEHQONCHILIK RIVOJLANMOQDA

2025-yilda fermer va qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan

asosiy maydonlarga 23,1 ming gektar sabzavot, 1,5 ming gektar poliz hamda 21 ming gektarda kartoshka ekilib, 416,1 ming tonna sabzavot, 30,4 ming tonna poliz hamda 419 ming tonna kartoshka mahsulotlari yig'ishtirib olindi.

Bundan tashqari, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash, bozorlarda narx barqarorligini saqlash maqsadida g'alladan va ertaki ekinlardan bo'shagan maydonlarga 11,8 ming gektar sabzavot va 10 ming gektar kartoshka ekilib, 261,3 ming tonna sabzavot va 222,8 ming tonna kartoshka yetishtirildi.

Viloyatda o'tgan yilga nisbatan 181,5 ming tonna sabzavot, 43,2 ming tonna kartoshka, polizdan qariyb 4 ming tonna ko'p mahsulot yetishtirildi.

Bu raqamlar shunchaki hisobot, statistikasi yaxshilash emas, balki dehqonlarimizning ilg'or asoslanib, innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda mahsulot yetishtirayotgani, yerga bo'lgan munosabatning o'zgarishi va daromadni ko'paytirishning yangi shakllarini ko'layotgani samarasidir.

AGRAR TARMOQ UCHUN MOLIIYAVIY KO'MAK OSHIRILADI

Prezidentimiz kelgusi yil uchun soha oldida turgan eng muhim vazifalarni ham belgilab berdi. Jumladan, keyingi yildan yangi agrotexnologiya yordamida 76 sxemada paxta yetishtirish, “Shinjon tajribasi” sohaga tatbiq etilishini bildirdi.

Ushbu vazifalardan kelib chiqib viloyatda 2026-yil hosili uchun 60 ming gektar maydonga chigit ekilishi rejalashtirilgan va ushbu maydonlardan jami 308 ming tonna paxta xomashyosi tayyorlash va hosildorlikni 51,3 sentnerga yetkazish ko'zda tutilgan. Buning uchun 24 ming gektar (40 foiz) maydonda qo'shqator sxemada, plyonka ostiga, tomchilatib sug'orish tizimini joriy qilgan holda chigit ekish rejalashtirilmoqda. Shundan 19 ming gektariga xorijiy navlar ekiladi.

Kuz-qish mavsumi uchun



asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini zaxira qilish yil davomida amalga oshirib, narxlar barqarorligini ta'minlash uchun doimiy intervensiya tizimi joriy etiladi. Har yili “in-vitro” laboratoriyalarida virusdan xoli 10 milliiondan ortiq kartoshka mini-tuganaklari tayyorlanib, urug'chilik xo'jaliklariga bepul beriladi.

Keyingi yildan suv nasosiga sarflangan elektr energiyasi uchun subsidiyalar meva-sabzavot, moyli ekin, kartoshka va ozuqa ekinlari yetishtiruvchi fermerlarga ham ajratiladigan bo'ldi.

Paxta-g'alla yo'nalishidagi eng ilg'or 200 nafar fermer, meva-sabzavot yo'nalishidagi eng mirishkor 200 nafar bog'bon va dehqon, qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi eng faol 100 nafar eksportchi Xitoy, Turkiya, Gollandiya, Fransiya kabi davlatlarga yuborilib, o'qitiladi.

Dehqonchilikda haqiqiy ishlaydigan, yerni aldamasdan kerakli ishlovni berib, ilmiy yondoshgan holda hosil yetishtiradigan palla keldi. Sohaga innovatsion texnologiyalarni joriy etib, suv resurslaridan oqilona foydalanish, yuqori hosilli, ekspoortbop va talabgor o'simliklarni o'zlashtirish davri boshlandi. Dehqon zamon bilan hamnafas bo'lib, kasbiga mehr qo'yib ishlaydigan va shundan o'ziga, oilasiga va davlatga ham foyda keltirish agrar tarmoqda mehnat qilayotgan har birimizning ustuvor vazifamizga aylanadigan vaqt keldi.

Begzod TUGALOV,
viloyat qishloq xo'jalik boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari.

2-sahifaga qarang >>>

Suvchilik - ota kasbim

Otam suvchi bo'lgan. U kishi ko'p yillar Ravotxo'ja suv to'g'oni-da, irrigatsiya sohasida mehnat qilgan. Yoshlikdan otamning yonida yurib, suvchilikka mehr qo'yganiman. Samarqand gidromelioratsiya texnikumini bitirgach, 1978-yildan suv xo'jaligi sohasiga ishga kirdim.

O'sha paytdan buyon Bulung'ur tumani suv xo'jaligi birlashmasi yangi Besh kanali gidromelioratsiya texnikumini bitirgach, 1978-yildan suv xo'jaligi sohasiga ishga kirdim.

O'sha paytdan buyon Bulung'ur tumani suv xo'jaligi birlashmasi yangi Besh kanali gidromelioratsiya texnikumini bitirgach, 1978-yildan suv xo'jaligi sohasiga ishga kirdim.



4-uchastkasida mehnat qildim. Hozir ham muhandis-gidrotexnik bo'lib, tajribamni yoshlarga o'rgatib kelmoqdaman. Qishloq xo'jalik xodimlari kuni arafasida davlatimiz rahbari farmoniga ko'ra “Do'stlik” ordeni bilan taqdirlandim.

Bu – men uchun katta mas'uliyat. Yurtimizda suv xo'jaligini rivojlantirish, irrigatsiya infratuzilmasini mustahkamlash yo'lida halol xizmat qilish bundan keyin ham asosiy maqsadim bo'lib qoladi. Bildirilgan ishonchni samarali mehnat bilan oqlashga harakat qilaman.

Obloqlu ABDULAZIZOV,
“Mirza-Pay” irrigatsiya tizimi boshqarmasi kanallari katta muhandis-gidrotexniki,
“Do'stlik” ordeni sohibi.

10-dekabr kuni xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi, yigirma uchinchi sessiyasi o'tkazildi. Sessiya ishini Kengashdagi O'zLiDeP deputatlik guruhi rahbari Sherali Yo'ldoshev boshqardi.

Deputatlar dastlab Samarqand shahri, Oqdaryo, Past Darg'om, Samarqand va Toyloq tumanlarining mavjud ma'muriy-hududiy chegaralarini o'zgartirish to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqdilar.

Davlatimiz rahbari shu yilning 25-noyabr kuni viloyatimizga tashrifi chog'ida Oqdaryo, Past Darg'om, Toyloq va Samarqand tumanlarining shaharga tutash hududlarini Samarqand shahriga qo'shish orqali uni bir millionli shaharga aylantirish, aholining urbanizatsiya darajasini oshirish ishlari davom etishini ta'kidlagan edi.

Samarqand shahar hududini kengaytirish bo'yicha berilgan topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida xalq deputatlari

Samarqand shahrini kengaytirish ma'qullandi

Samarqand shahar va Oqdaryo, Past Darg'om, Samarqand, Toyloq tumanlari kengashlarining sessiyalarida mazkur hududlar chegaralarini o'zgartirish to'g'risidagi masala ko'rib chiqilib, tegishli qarorlar qabul qilingan edi. Ushbu qarorlarga ko'ra, Past Dargom tumanidan 1242 gektar maydon (7 ta mahalla, 20 ming aholi), Toyloqdan 1266 gektar (8 mahalla, 12 ming aholi), Samarqand tumanidan 13308 gektar (68 mahalla, 235 ming aholi), Oqdaryodan 1411 gektar (2 mahalla, 10 ming aholi) Samarqand shahriga o'tkaziladi.

Sessiyada ishtirok etgan viloyat hokimi o'rinbosari Navro'zjon Rahmonovning qayd etishicha, ma'muriy-hududiy chegaralarning o'zgarishi natijasida shahar hududi 28403 gektarga, aholisi esa 880 ming nafarga yetadi. Shaharning kengayishi va

aholi soni oshishi odamlar uchun zamonaviy infratuzilma va qulay turmush sharoiti yaratish, yangi ish o'rinlari ochish, ijtimoiy soha muassasalari tashkil etish, yangi uy-joylar qurish kabi uzoq muddatli dasturlarni amalga oshirishga asos bo'ladi.

Sessiyada shahar hududini kengaytirish bo'yicha mahalliy kengashlar qarorlari asosida tegishli qaror qabul qilindi.

Shundan so'ng viloyat soliq boshqarmasi boshlig'i Farrux Boboyev soliq xizmati organlari tomonidan budget daromadlari ijrosi va qo'shimcha soliq tushumlarini ta'minlash borasida viloyatda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan hisobot berdi.

Ta'kidlanishicha, viloyatda 2025-yil uchun belgilangan 6 trillion 95 milliard so'm budget daromadlari prognoz rejasini 9-dekabr holatiga 6 trillion 177 milliard so'm (101

foiz)ga bajarilishi ta'minlandi. Soliq tushumlari ham 127 foizga bajarildi.

– Soliq to'lovchilarda to'lov intizomi oshishi natijasida yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat miqyosida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliq majburiyatlarining ixtiyoriy bajarilishi 96 foizni tashkil etdi, – dedi F.Boboyev. – Soliq inspektorlari va “Mahalla yetiligi”ning hamkorlikdagi faoliyati natijasida jismoniy shaxsning turarjoy obyektlari uchun 590,6 milliard so'm soliq undirildi va uning 59,1 milliard so'mi mahalla budjetida qoldi. Hisobot davrida soliq organlari tomonidan 65 ming 129 ta qo'shimcha obyekt aniqlanib, 56,8 milliard so'm mol-mulk va yer solig'i hisoblandi. 17 ming 291 ta korxonada 15 ming 472 nafar norasmiy ishchining faoliyati legallashtirilishi natijasida 20,4 milliard so'm ish haqi fondi yaratilib, qo'shimcha 4,6 milliard so'm daromad solig'i undirildi. 14 ming 425 ta subyektda 306,1 milliard so'mlik tovar aylanmasi qayta hisobotlar olinishi hisobiga oshirildi va qo'shimcha 24,7 milliard so'm aylanmadan olinadigan soliq undirilishi ta'minlandi. Noqonuniy faoliyat ko'rsa-

tayotgan 9328 nafar tadbirkor yangidan ro'yxatdan o'tkazildi.

Hisobot davrida 3,4 ming soliq to'lovchida o'tkazilgan kameral soliq tekshiruvlarida 1 trillion 292 milliard so'm tafovutlar aniqlangan. Shuningdek, “Soliq” mobil ilovasining “Soliq hamkor” tizimi orqali 8338 ta soliq huquqbuzarligi haqida murojaatlar kelib tushgan. Ushbu murojaatlar asosida 3747 ta sayyor soliq tekshiruvi o'tkazilib, 18,6 milliard so'mlik jarimalar ko'lanilgan.

Huquqbuzarlik holatlari bo'yicha xabar bergan fuqarolarga 1024 ta holat bo'yicha undirilgan jarima summasidan 20 foiz – 512,4 million so'm mukofot puli sifatida to'lab berilgan.

Deputatlar hisobot yuzasidan o'z taklif va tavsiyalarini bildirdilar.

Sessiyada Energetika vazirligi tomonidan amalga oshirilishi va Jahon banki tomonidan moliyalashtirilishi rejalashtirilgan “Qorako'l” va “Nurobod” podstantsiyalarini bog'lovchi 500 kV elektr uzatish tarmog'ini qurish” investitsiya loyihasini amalga oshirish loyiha konsepsiyasi to'g'risidagi hamda Kengash vakolatiga tegishli boshqa masalalar ham ko'rilib, qarorlar qabul qilindi.

Oddiy emas, INTENSIV BOG'

Bog'dorchilik hozirgi agrar tarmoqda daromadliligi bo'yicha yetakchi o'rinni egallaydi. Chunki bu yo'nalishda mahsulotni saqlash, qayta ishlash va eksporti to'g'ri yo'lga qo'yilsa, yil davomida daromad olish imkoni bor.



Hozir viloyatimizda aholi va dehqon xo'jaliklari-da 13,2 ming gektar hamda fermer xo'jaliklarida 29,8 ming gektar mevali bog' mavjud. Fermer xo'jaliklari bog'laridan 59 foiz (17,7 ming gektar) ni intensiv mevali bog'lar tashkil etadi hamda (15 ming gektari) tomchilatib sug'orish texnologiyalari joriy etilgan. Shu bilan birgalikda, viloyatda 55,5 ming gektar (shundan, fermer va qishloq xo'jaligi korxonalarida 45 ming gektar, aholi tomorqalarida 10,5 ming gektar) uzumzor mavjud. Fermer va qishloq xo'jaligi korxonalarining 45 ming gektar uzumzorlaridan 29,4 ming gektar hosilli uzumzorlar hisoblanadi.

Viloyatda 2024-2025-yillarda 6,5 ming gektar sanoatlashgan intensiv mevali bog' va tokzorlar barpo etish belgilangandi. Jumladan, 2025-yilda (bahorda 2,3 ming gektar, kuzda 2 ming gektar) sanoatlashgan intensiv bog' va tokzorlar yaratildi. Masalan, Bulung'urda 710, Jomboyda 151,

Ishtixonda 139, Kattaqo'rg'onda 354, Nurobodda 231, Payariqda 283, Urgutda 148, Qo'shrabotda 184 gektar sanoatlashgan intensiv bog'-tokzorlar barpo etildi.

2026-yilda 1,4 ming gektar sanoatlashgan intensiv mevali bog' va 1,3 ming gektar sanoatlashgan uzumzorlar barpo etish rejalashtirilgan. 2025-2026-yillarda iqtisodiy jihatdan samarasiz, yaroqsiz bo'lgan 1,6 ming gektar bog' va 2,6 ming gektar tokzorlar rekonstruksiya qilinib, ular o'rnida yangi sanoatlashgan intensiv mevali bog'-tokzorlar yaratish ko'zda tutilgan.

ISSIQXONALAR QISHKI ERMAK EMAS

Tahlillarga ko'ra viloyatda 292 ta subyektda 466 gektar maydonda issiqxona xo'jaliklari faoliyat yuritadi. Ulardan 28 tasi gidroponika usulida 106 gektarda, 264 tasi odatiy usulda 361 gektar maydonda joylashgan. Ularning 234 gektardagi 108

tasi tabiiy gazda, 198 gektardagi 150 tasi ko'mirida isitiladi, 34 gektardagi 34 ta issiqxona isitilmaydi. Shundan bugungi kunda 383,4 gektar maydondagi 218 ta issiqxonada ekin ekilib, faoliyat yuritmoqda. Joriy yilda ushbu issiqxonalardan 24,1 ming tonna mahsulot olish rejalashtirilgan bo'lib, amalda 26,1 ming tonna mahsulot yetishtirildi. Shuningdek, hozirda tijorat banklari balansida turgan jami qiymati 16,6 milliard so'mlik 4 ta 3,4 gektar issiqxonalar bor. Shu bilan birga 38,6 gektar maydondagi 32 ta issiqxonada ekish ishlari boshlanmagan bo'lsa, 44 gektardagi 42 ta issiqxona xo'jaliklari faoliyati to'xtab qolgan. Mas'ullar bilan birgalikda issiqxona xo'jaliklaridagi muammolar o'rganilib, ekish ishlari-ga ko'maklashish, soliq, bank, elektr energiyasi, gaz ta'minoti va boshqa masalalarda ularga amaliy yordam berish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, joriy yilda 349 milliard so'mlik 5 ta loyihadagi 85 gektar issiqxona ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Bugungi kungacha 2 ta issiqxonada qurilish ishlari amalga oshirilmoqda.

O'RMON YONG'OG'I (FUNDUK) BIZ UCHUN YANGI MEVA(MI?)

Prezidentimizning 2023-yil 24-avgust kuni viloyatimizga tashrifi davomida 2023-2025-yillarda Bulung'ur, Jomboy, Payariq, Kattaqo'rg'on va Nurobod tumanlarida 2 ming gektar yer maydonida, shu jumladan, aholi tomorqalarida Ozarbayjon tajribasi asosida o'rmon yong'og'i (funduk) daraxti ekilishini va shu orqali 8 ming ish o'rni yaratishni ta'minlash topshirig'i berilgandi.

Mazkur topshiriq ijrosi yuzasidan Turkiya, Ozarbayjon va Gruziyadan o'rmon yong'og'i (funduk)ning O'zbekiston tuproq, iqlim sharoitlariga mos navlari hamda ushbu davlatlarda funduk yetishtiriladigan hududlar va yetishtirish agrotexnikasi o'rganildi. Joriy yil mart oyida esa mamlakatimizga "SAG AGRO" MChJ tomonidan Turkiyadan 100 ming dona funduk ko'chatlari olib kelindi. Ko'chatlarning 73,5 ming donasi 123 gektar maydonga ekildi. Jumladan, Bulung'urda 44, Payariqda 24, Jomboyda 55 gektar, shuningdek, 26,5 ming donasi aholi xonadonlariga (Bulung'urda 20 ming dona, Past Darg'omda 6,5 ming dona) ekildi.

Prezidentimizning 2024-yil 30-sentabrdagi "Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga asosan 2024-2027-yillarda anjir, funduk va zaytunzorlarni tashkil etish belgilangan.

Mazkur qaror bilan viloyatimizda 2024-2027-yillarda jami 488 gektar maydonda (fermer xo'jaliklarida 224 gektar va aholi tomorqalarida 264 gektar) funduk maydonlari tashkil etiladi.

Shomirza SAFAROV,
Agrosanoatni rivojlantirish agentligi viloyat bo'limi bosh mutaxassisi.

Samarqand qishloq xo'jaligi

2025-yilda

Joriy yilda 64634 quti ipak qurti boqilib, 3885 tonna pilla hosili yetishtirildi.

G'alla maydonlaridan 825 ming tonnadan ortiq hosil olindi va o'rtacha hosildorlik 87,6 sentnerni tashkil qildi.

Rejalashtirilgan 28,1 ming gektar o'rniga 36,2 ming gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalar joriy qilindi.

Chorvachilik sohasida qiymati 379 milliard 803 million so'mlik 81 ta loyiha amalga oshirilib, 587 ta yangi ish o'rni yaratildi. 157,2 ming tonna go'sht, 706,9 ming tonna sut, 596,3 million dona tuxum, 2956,6 tonna baliq, 261,9 tonna asal yetishtiriladi.

Qoramollar 1805 ming boshga, qo'y-echkilar 2724 ming boshga yetdi. Go'sht (tirik vaznda) ishlab chiqarish 349 ming tonnaga, sut ishlab chiqarish 1511 ming tonnaga yetkazildi. Mug'ulistondan viloyatimizga qiymati 1million 193 ming dollarlik 6830 bosh "Bayat" zotli naslli qo'y keltirilib, 100 ta ish o'rni yaratildi.

9 oyda 15,6 million bosh parranda boqilib, ulardan 1,1 milliard dona tuxum olindi. Yil yakunigacha parranda bosh sonini 16,2 million boshga va tuxum yetishtirishni 1,4 milliard donaga yetkazish rejalashtirilgan.

Viloyatdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi 221 ta korxonada 1250 ming tonna mahsulot qayta ishlandi va bu ko'rsatkich bilan qayta ishlash darajasi 38 foizga yetdi. Yaqinda shu yo'nalishdagi 14 ta korxona ishga tushirildi. Buning natijasida qayta ishlash quvvatlari 1310 tonnaga yetkaziladi.

Eksportyor korxonalarimiz tomonidan 9 oyda 350,7 million dollarlik mahsulotlar xorijga sotildi va viloyatdan eksport qilinadigan mahsulot turlari 93 taga yetkazildi.

Iqlim o'zgarishlari sharoitida oziq-ovqat xavfsizligi eng dolzarb masalaga aylangani hech kimga sir emas. Aholining ko'payishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi hamda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi barcha mamlakatlar mutaxassislardan yangicha yondashuvga asoslangan ilmiy-innovatsion yechimlarni talab qiladi.

Respublikamiz qishloq xo'jaligida yangi yondashuvlarga asoslangan ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini yo'lga qo'yish avvalo, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga birinchi navbatdagi ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Qishloq xo'jaligini tubdan isloh qilish, sohaga resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda ekologik toza, arzon va raqobatbardosh milliy mahsulotlarni ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etuvchi mutaxassislarni tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarining o'rni katta.

Davlatimiz rahbari joriy yil 10-dekabr kuni qishloq xo'jaligi xodimlari bilan uchrashuvda yosh agronomlar ilg'or klaster va fermerlarda amaliyot o'tashi, ularga pul to'lanishi va tajriba orttirgan agronomlar qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan tumanlarda doimiy ish bilan ta'minlanishini bildirdi. Ular tarmoqqa yangiliklarni joriy qilib, hosildorlikni oshirishi, xarajatlarni qisqartirishga ko'maklashishi, 2 ming dollardan maosh to'lanishi ta'kidlandi.

Haqiqatdan ham bu bilan agronomlik yoshlar o'rtasida eng jozibador kasbga aylanadi va bu o'z navbatida agrar tarmoq rivojiga xizmat qiladi.

TALABALARIMIZ XORIJDA TAJRIBA OSHIRADI

Institutimizdagi 1600 nafardan ortiq talabaning keng ko'lamli ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari ham ayni yuqorida ta'kidlab o'tilgan dolzarb masalalarni hal etishga qaratilgan va chet elda tahsil olib, tajriba almashish imkoniyati yaratilgan. Xorijiy akademik almashinuv dasturlari asosida har yili yuzlab talaba, magistrant, ilmiy tadqiqotchi va professor-o'qituvchilar Germaniya, Polsha, Buyuk Britaniya, Portugaliya, Turkiya,

Agronomlik

eng jozibador kasbga aylanadi



Latviya, Litva, Finlandiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Yaponiya kabi qishloq xo'jaligi rivojlangan mamlakatlarda amaliyot o'taydi hamda o'z ilmiy tadqiqotlarini olib boradi.

Hozirgi kunda institutda xorijiy hamkorlar bilan bir qator xalqaro loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalarining aksariyati oziq-ovqat masalalarining yechimiga qaratilgan va ichki bozor uchun yangi, sifatli va arzon mahsulotlar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Shu bilan bir qatorda institut o'quv jarayonlariga loyihalar doirasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha xalqaro ta'lim dasturlari ham kiritilmoqda. Jumladan, Yevropaning ERASMUS dasturi asosida olib borilayotgan OFINU loyihasi aynan oziq-ovqat texnologiyasi bo'yicha talabalar, o'qituvchi-professorlar, sohaga qiziquvchi aholi, ishlab chiqaruvchilar va fermerlar uchun katta imkoniyatlarni ochadi. Hozirgi kunda mazkur loyiha doirasida institutda foydali qo'shimchalar bilan boyitilgan

non mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Mazkur ishlab chiqarish liniyasi institut professor-o'qituvchilari va talabalari uchun amaliyot o'tash maydoni hamda qo'shimcha daromad manbai sifatida xizmat qilmoqda.

Yaponiyaning JICA kompaniyasi bilan hamkorlikda respublikamizda yetishtiriladigan xurmoni qayta ishlash orqali undan mayiz, chips hamda xurmo kukuni tayyorlash yo'lga qo'yildi. Ushbu loyiha doirasida institutda har yili 60 tonna xurmoni quritish, qayta ishlash va saqlashga mo'ljallangan zamonaviy binolar qurildi. Loyiha ishtirokchilari o'zlashtirgan tajriba va ko'nikmalarini mahalliy aholi vakillarining uy xo'jaliklarida ham amalga oshirib, aholi daromadlarini oshirishga hissa qo'shib kelmoqda. Bu jarayonlarda institut talabalari bilim va malakalarini oshirib bormoqda hamda ishlab chiqarish amaliyotini bajarmoqda.

Institutda 2024-2025-yillarda olib

borilgan va Latviya hukumati tomonidan moliyalashtirilgan BioDigiSkills" loyihasi issiqxona sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda biotexnologik jarayonlarni raqamlashtirishga qaratilgan. Yangi ilmiy yondashuvlar asosida sifatli, ekologik toza, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish maqsad qilingan. Loyiha institutimizning iqtidorli talabalari tomonidan amalga oshirilmoqda. Joriy yilda loyiha doirasida g'olib bo'lgan 10 nafar talabamiz Latviyaning ilg'or ilmiy va ishlab chiqarish muassasalarida qisqa muddatli amaliyot o'tab kelishdi.

DORIVOR O'SIMLIKLAR – TABIIY DAVO

Oziq-ovqat xavfsizligi masalasida insonlar salomatligini muhofaza qilish hamda salomatligini tiklashda dorivor o'simliklardan tayyorlangan turli vositalarning o'z o'rni bor. Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida birinchilardan bo'lib, mahalliy dorivor o'simliklar asosida shifobaxsh choylar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Muassasamizda mahalliy hamda introdusent dorivor o'simliklarni yetishtirish, qayta ishlash va ular asosida tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha amaliy ishlar bajarilmoqda. Jumladan, yangi mahsulot hisoblangan "Artishok bargi choyi" ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu mahsulot mahalliy aholi o'rtasida tez ommalashdi. E'tiborli jihat, viloyat hokimligi tomonidan moliyalashtirilgan mazkur startap loyihasi doirasida ishlab chiqarilayotgan mazkur mahsulot institut talabalari tomonidan quritish va qadoqlash uskunalarida tayyorlanmoqda. Hozirgi kunda talabalar hamda ilmiy tadqiqotchilar institut axborot-maslahat markazi tajriba uchashtasida o'ndan

ortiq dorivor o'simlik turlarini madaniylashtirish, introduksiyalash hamda xomashyoni tayyorlash bo'yicha keng ko'lamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib bormoqda. Kellajakda ishlab chiqariladigan dorivor vositalari assortimentini ko'paytirish, soha uchun malakali kadrlarni tayyorlashni maqsad qilganmiz.

BALIQCHILIK VA PARRANDACHILIK XO'JALIKLARIGA ARZON VA SIFATLI OZUQA TAYYORLANADI

Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda viloyatda 450 dan ortiq baliqchilik xo'jaligi faoliyat ko'rsatmoqda. Bundan ko'rinadiki, baliqchilik viloyatimizning drayver sohalari sirasiga kirib bormoqda. Bugungi kunda baliqchilik tarmog'i oldida turgan muhim vazifalardan biri sifatli, ekologik toza va arzon ozuqa bazasini yaratish hisoblanadi. Bu muhim vazifani amalga oshirish bo'yicha baliq uchun omuxta yem tayyorlash ustida ilmiy izlanishlar olib boryapmiz. Jumladan, institutimiz talabasi ustozlari bilan hamkorlikda baliq va tovuqlar uchun tarkibi qimmatli vitamin, oqsil va mikroelementlarga boy azolla va ryaska o'simliklari asosida tayyorlagan yangi "Biofoodchicken" mahsuloti yuqori baholandi. Viloyat va respublika innovatsion yarmarkalarida munosib ishtirok etgan ushbu loyiha istiqbolli deb topilib, moliyalashtirishga tavsiya etildi. Bu to'liq organik mahsulot hisoblanib, tegishli sifat sertifikatiga ega bo'ldi. Mazkur mahsulotni institut sexlarida ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda.

Yigitali TOSHPOLATOV,
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti kafedra mudiri, dotsent.



O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi tizimida "Tashabbus va g'oyalarimiz mustaqil, yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun!" shiori ostida "Eng faol deputat" ko'rik-tanlovi tashkil etilgan. Kecha ana shu tanlovning viloyat bosqichida tuman va shahar bosqichi g'oliblari o'zaro kuch sinashdi.

XDPning eng yaxshi deputatlari aniqlandi

- Mahalliy kengashlarning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ijro etuvchi hokimiyat idoralari faoliyati ustidan nazorat o'rnatish va odamlarni o'ylantirayotgan muammolarni hal qilish borasidagi sa'y-harakatlari o'z samarasini bera boshladi, - deydi partiya viloyat kengashi raisi B.Nasriyev. - Shu jihatdan bu kabi tanlovlar deputatlarning o'zaro tajriba almashi-shi, faoliyat samaradorligi oshishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tanlov ishtirokchilarining chiqishlari 3 ta shart asosida baholandi. Xususan, deputatlar saylov okrugaridagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga oid muammolarni o'rganish, saylovchilar huquq va manfaatlarini himoya qilish, partiyaning saylovoldi dasturida belgilangan ustuvor vazifalarni qay tarzda yo'lga qo'yganini bayon qildi.

Siyosiy hozirjaboblik shartida Konstitutsiya va qonun hujjatlari asosida tayyorlangan savollarga javob berildi. Muammoni hal qilish, xususan, saylovchilar murojaatlarini ko'rib chiqish tajribalari sinovdan o'tkazildi.

- Ikkinchi marta deputatlikka saylanganman, - deydi xalq deputatlari Nurobod tumani kengashi deputati Bahodir Ibodullayev. - Hudud chekka, tabiiyki, infratuzilma haminqadar edi. Juda ko'p idoralarga chiqdik. Bu harakatlarimiz natijasida bugun Chorvador mahallasi namunali hududga aylandi. Xursand qiladigan shuki, mahallamiz bugun ishsizlikdan xoli bo'lgan.

Ayni shu jihatlar hisobga olinib, B.Ibodullayev viloyatda eng faol deputat, deb topildi. U tanlovning respublika bosqichida viloyatimiz nomidan ishtirok etadi.

Ko'rik-tanlovda ishtirokchilar orasidan "Eng shijoatli deputat", "Tashabbuskor deputat", "Eng mehnatkash deputat" nominatsiyalari bo'yicha g'olib va sovrindorlar ham partiyaning esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Chet tili ni o'rganish uchun subsidiya ajratiladi

Vazirlar Mahkamasining shu yil 8-oktabrdagi «Yoshlarning o'quv markazlarida xorijiy tillarni o'qish xarajatlari uchun subsidiya ajratish hamda o'quv markazlarini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida yoshlarning o'quv markazlarida xorijiy tillarni o'qish xarajatlari bir qismi uchun subsidiya ajratilishi belgilangan.

Unga ko'ra, 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar bu imkoniyatdan foydalanishi mumkin.

Ariza beruvchilarning xorijiy tilni o'qish xarajati uchun:

o'quv markazlarining reytingini shakllantirish uchun belgilangan tartibda elektron platforma orqali ro'yxatdan o'tgan;

ariza beruvchilarning o'quv mashg'ulotlarida qatnashganini kunlik elektron nazorat qilish imkonini beruvchi elektron platformaga integratsiya qilingan o'quv markazlariga "2+6" dasturi doirasida subsidiya ajratiladi.

Bunda ariza beruvchi dastlabki ikki oy davomida xorijiy tilni o'qish xarajati o'z hisobidan elektron platforma orqali o'quv markazining tegishli bank hisobvarag'iga to'laganda, uning keyingi olti oyga cha bo'lgan o'qish xarajati o'quv markazi tomonidan elektron platforma orqali yuborilgan hisob-fakturaga asosan, ariza beruvchining davomatiga mutanosib ravishda Yoshlar ishlari agentligining Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga ajratilgan mablag'lar doirasida o'quv markazining tegishli bank hisobvarag'iga shartnomada belgilangan muddatlarda o'tkazib boriladi..

Ariza beruvchilarning xorijiy tilni o'qish xarajati uchun subsidiya ajratiladigan o'quv markazlari ro'yxati Yoshlar ishlari agentligi tomonidan shakllantiriladi va elektron platforma orqali e'lon qilib boriladi.

Subsidiya BHMning 1-3 baravarigacha miqdorda ajratiladi.

Xurshid O'RISHBOYEV,
Samarqand shahar adliya bo'limi davlat xizmatlar markazi katta mutaxassisi.

Bankda ochiq eshiklar kuni

"O'zmilliybank" aksiyadorlik jamiyati viloyat bosh boshqarmasida xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan ochiq eshiklar kuni o'tkazildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki tizimida o'tkazilayotgan aksiokorrupsiya haftaligi doirasida tashkil etilgan tadbirda bank viloyat boshqarmasi hamda hududiy bank xizmatlari markazlari va bank xizmatlari ofislari xodimlari bevosita ham ZOOM platformasi orqali qatnashdi.

Viloyat prokuraturasi, adliya boshqarmasi va boshqa tegishli organlar mas'ul xodimlari yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, qabul qilinayotgan qonun va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarning ahamiyati haqida so'z yuritdilar. Joriy yil 5-mart kuni Prezidentimiz ishtirokida o'tkazilgan korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishida berilgan topshiriqlar asosida mamlakatimiz bank tizimida korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo'yicha olib

borilayotgan ishlar tanqidiy tahlil qilindi.

- Viloyat prokuraturasi tomonidan joriy yilda "Bank va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun va sohaga oid boshqa hujjatlar ijrosi yuzasidan 26 ta tekshirishlar o'tkazilib, 28 ta hujjatga protest, 10 ta taqdimnoma kiritilgan, - dedi viloyat prokuratura-si bo'lim prokurori Ja'far Sharopov. - Taqdimnomalar muhokamasiga ko'ra, 100 nafardan ortiq bank xodimiga intizomiy va ma'muriy choralar qo'llanilgan. Banklarda mavjud muammoli kreditlar tahlil qilinganda aksariyatida korrupsion omillar borligi aniqlandi. Yaqinda bo'lgan holat - 2022-yilda amalga oshirilgan loyihaga shu yilning avgust oyida kredit ajratilgani rasmiylashtirilgan. Axir buning ortida nima turganini oddiy odam ham anglaydi-ku. Umuman, shu kabi korrupsion holatlar uchun 17 nafar bank mas'ullari jinoyi javobgarlikka tortildi. Yaxshi bilasiz-

lar, Prezidentimiz tomonidan korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Samarqand tajribasini yo'lga qo'yish, sohalarini raqamlashtirish orqali maishiy korrupsiyaga barham berish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Bu borada viloyat prokuraturasi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy kengash hamkorligida davlat organlarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida "Yo'l xarita"si ishlab chiqilgan. 88 ta idora va tashkilotga prokuratura xodimlari birlashtirildi. Har oyda bitta sohada korrupsion holatlarni o'rganish bo'yicha reja-jadval ishlab chiqilib, natijasi hududiy kengashda muhokama qilib kelinmoqda. Bundan albatta, bank sohasi mas'ullari va xodimlari ham xulosa qilishi lozim.

Tadbir davomida huquq-tar-tibot idoralari mas'ullari bank xodimlarini korrupsion va iqtisodiy jinoyatlarni keltirib chiqaradigan omillardan ogoh etib, ularga huquqiy tushuncha berdi, qonunlar mohiyati tushuntirildi.

Tabiiy mahsulotlardan dori ishlab chiqarilmoqda

Samarqand davlat tibbiyot universitetida 2018-yildan buyon farmatsiya fakulteti faoliyat yuritib kelmogda. 2022-yilda esa mazkur fakultet tarkibida farmasevtika ishini tashkil qilish kafedrasi tashkil etildi. Kafedra nafaqat talabalarga ilmiy va amaliy bilim beradi, balki zamonaviy farmasevtika texnologiyalari, dori vositalarini ishlab chiqarish va sifat nazorati bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib bormogda. Olimlarimiz xalqimiz talab va ehtiyojlarida kelib chiqqan holda mahalliy xom ashyolardan arzon, sifatli va foydali dori vositalarini ishlab chiqish ustida izlanmogda.

Jumladan, joriy yildan boshlab kafedrada 7 turdagi biologik faol moddalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi va mazkur dori vositalari Sog'liqni saqlash



vazirligi ruxsatnomasi asosida iste'molga tavsiya etildi.

Shuningdek, universitetda har yili dorivor o'simliklar yarmarkasi tashkil etilmoqda. Unda talabalar o'zlari yetishtirgan mahsulotlarni taqdim etishadi. Namatak, kiyik o'ti, ermon o'ti, do'lana mevasi kabi tabiiy mahsulotlardan tayyorlangan dori vositalarimiz xalqimizga taqdim etilmoqda.

Kafedra qoshida "Farmasevtika himoyachilari" nomli talabalar ilmiy jamiyati faoliyat yuritib, 50 nafardan ortiq talaba ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanaypti.

Baxtigul YALG'ASHEVA,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasida marhum Xujayev Bobojon Subatullayevichga (2025-yil 2-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Narpay tumani Oqtosh shahri, Imom Buxoriy ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Majidov Axror Xasanovichga (2023-yil 7-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko'chasi.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Ulashov Botirqulga (2019-yil 7-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 13-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Avalboyev Kuvandik Suvanovichga (2017-yil 28-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 7-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Avalboyev Shukurullo Nurullayevichga (2020-yil 12-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasida marhum Nurmatov Alisher Obloqulovichga (2016-yil 18-iyulda vafot

etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mustayev Azizbek Faxriddinovich notarial idorasida marhum Sharipov Olim Mo'minovichga (2025-yil 23-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mustayev Azizbek Faxriddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 50/34.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Toshtemirov Shirmat Yaxshibayevichga (2024-yil 2-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Abduraximov Askorga (2017-yil 16-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasida marhum Kadirov Kurbon Yunusovichga (2022-yil 26-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarida marhum O'sarova Rayxon Holiqulovnaga (2024-yil 12-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Islomov Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

Қаюм ТУРҒОНОВ



Бешафқат ўлим халқ таълими фидойиси, ижодкор педагог Қаюм Турғоновни 76 ёшида орамиздан олиб кетди.

Қ.Турғонов 1949 йилда Нуробод туманининг Жом қишлоғида туғилган. Мактабни битиргач, Самарқанд давлат университетининг филология факультетиде ўқиди. Олийгоҳдаги таҳсилини мукаффақиятчи тамоқлаб, қишлоғидаги 23- ва 24-мактабларда 40 йилдан ортиқ вақт мобайнида ўзбек тили ва адабиёти фанларидан дарс берди. Фаолияти давомида ўқувчиларининг саводхонлигини, мактабнинг нуфузини ошириш, адабиёт фанини ўқитишнинг янги услубларини тарғиб этиш ҳақида қайғурди.

Таълим тизими ривожига оид тақлифлари, мулоҳазалари билан вақтли матбуот нашрларида чиқишлар қилди. Ижодкор ўқитувчи сифатида 200 дан ортиқ очерк, хикоя, ҳажвия ва мақолалар, тақризларини туман, вилоят ва республика нашрларида чоп эттирди. Газет-хонларни мушоҳадага ундовчи долзарб мавзудаги мақолалари сабаб Қ.Турғонов "Нуробод", "Зарафшон" ва "Маърифат" газеталарининг жамоатчи муҳбирига ҳам айланган.

Меҳнат фаҳрийси, халқ таълими аълочиси Қаюм Турғон Жомини, унинг кенг далалари, қирлари, тоғларини, одамларини жуда севарди. Асарларида қишлоғи тарихи билан боғлиқ воқеа-ходисаларни қаламга олар, адабиётга хос воқеликларни рўй-рост акс эттирарди.

Маърифат фидойиси, ўзбек адабиёти билимдони ва тарғиботчиси Қаюм Турғоннинг хотираси қалбимизда яшайди.

Бир гуруҳ дўстлари ва шогирдлари.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Isamedinov Fazliddin Sadridinovichga (2025-yil 2-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasida marhum Jabborov Xoibuta Usarovichga (2025-yil 7-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko'chasi, 48-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Sultanov Ulmasga (2007-yil 3-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasida marhum Yakubbayev Shakirdjan Isakjanovichga (2025-yil 12-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

BEKOR QILINADI

Samarqand shahridagi "ZARIFJON SAM QURILISH" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 306095130) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Past Darg'om tumanidagi Xafizov Isomidin Abdiazizovich yakka tartibdagi tadbirkorining (JSHSHIR: 32803793950139) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi "UMUTCAN ORAL" mas'uliyati cheklangan jamiyat xususiy bandlik agentligining (STIR: 311276085) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

МУАЛЛИМ ИЛА МУҲАРРИР – миллатнинг икки қўли

Миллат ойдини бўлиш таъкиб этилган су-
ронли йилларда ҳам Саидризо Ализода ўзбек,
тожик, рус тилларида матбуотга хат, мақола-
лар ёзган, «Самарқанд» газетаси, «Ойина»
журналида Бехбудийнинг яқин ҳамкори бўлган,
«Телеграф хабарлари» номли варақани ўзбек
тилида ўз ҳисобидан чиқаради (1914), «Шарқ»
газетасига муҳаррирлик, «Хуррият» газетасида
таржимон ва мухбирлик (1917), 1922 йилдан
«Зарафшон» газетасида бўлимга мудирлик қи-
лади, «Овози тожик» газетаси асосчиларидан
бири, масъул котиб бўлади. 1919 йилда ўша
давр руҳига мос «Шарқ машъали» номида ҳаф-
талик журнал ташкил этади ва уни бошқаради.
Форс ва тожик тилларида нашр этилган, адади
4 минг нусхага яқин бўлган ушбу мажалла Ўрта
Осиё, Кавказортидан ташқари, Афғонистон,
Эрон, Туркия, Ҳиндистон ва бир қанча араб

мамлакатларига тарқалар эди. Самарқанд-
да мактаб очиб, муаллимлик қилган. «Сарфи
араб», «Туркий алифбо», «Тарих», «Жуғро-
фия», «Риёзиёт», «Хандаса», «Табиат», «Дин
вожиблари», «Низомнома», «Бадан тарбияси»,
«Илми фазо» номли 11 та дарслик тузган.
Миллат ойдини бўлиш ҳаётга хавф солиб
турган пайтда 14 тилни мукаммал эгаллаб,
«Капитан кизи», «Борис Годунов», «Дубров-
ский», «Евгений Онегин», «Тирилиш», «Ре-
визор», «Очилган кўрик», «Цемент», «Пўлат
қандай тобланди» асарларини русчадан ўзбек,
форс, тожик тилларига ўгиради, француз-
чадан Мольер, Мопассан, инглизчадан Эптон
асарлари таржимасига қўл уради, Ибн Сино,
Фирдавсий, Низомий, Ғофурий, Навоий асар-
ларидан рус тилига таржималари ҳам таҳсинга
лойик иш эди.



Тахликали пайтда бунчалик шиддат билан
ижод қилиш, ўз ҳисобидан мактаб очиш, газета-
лар ташкил этиш учун инсон иродаси нимадан
бўлиши керак?

Миллат ойдини - Саидризо Ализода 1937
йил декабрда сиёсий чакув натижасида ҳибсга
олинади. 8 йил Самарқанд, Тошкент, Тоболск,
Владимир қамоқхоналарида ўтириб, 1945 йил
24 декабрда касаллик туфайли вафот этади. Шу
кунларда бу воқеага ҳам 80 йил тўлибди. Аммо
унинг фидойилиги унутилмаган, унутилмайди
ҳам.

Саидризонинг сўнгги сўзлари

Турмада умрининг сўнгги кунларида кўйлагининг
парчаларига ёзилган

Умримнинг чароғи – қора кўзларим,
Юз йилдан нарига боқдим сиз билан.
Бошқалар боқолмас келажак томон,
Оддий фикр билан оддий кўз билан –
Мендан рози бўлинг, мени кечиринг.

Кундага минг бора қўйилган бошим,
Рақиблар кўксига урилган тошим,
Минг бор балоларга дучор бўлганим,
Тоза юзларингиз ювди қон ёшим –
Мендан рози бўлинг, мени кечиринг.

Ҳикмат китобини ёзган қўлларим,
Қуллик кишинини узган қўлларим,
Ҳамиша интилиб эзгулик томон,
Қабоҳат уйини бузган қўлларим,
Мендан рози бўлинг, мени кечиринг.

Мағрибдан Машриққа кўтариб таним,
Толмас оёқларим, билмади тиним.
Сизларга ҳеч қачон бермадим ором,
Сизлар дўст бўлдингиз, мен эса ғаним,
Мендан рози бўлинг, мени кечиринг.

Миллат дарди билан ёнган юрагим,
Минг битта офатга кўнган юрагим,
Қон ичиб, қон қусиб, юрт деб ҳайқириб,
Охири шам каби сўнган юрагим,
Мендан рози бўлинг, мени кечиринг.

Биргина содиқ дўст – бир донга тишим,
Дўстларин йўқотган дурдона тишим,

Тепкию муштлардан тўкилди бори,
Тўкилмайин қолган ягона тишим,
Мендан рози бўлинг, мени кечиринг.

Мудом оғу ютган хун-хун жигарим,
Дастимдан ҳеч кўрмади кун жигарим.
Калтаклардан тилкаланиб ётадир,
Кўрганимиз – зулмату тун жигарим,
Мендан рози бўлинг, мени кечиринг.

Бир қултум ҳавога зор ўтган ўпкам,
Ёвуз чанғалида хор ўтган ўпкам,
Бир бора хотиржам олмадик нафас,
Қора савдоларга ёр ўтган ўпкам,
Мендан рози бўлинг, мени кечиринг.

Ҳамиша ҳақ сўзни сўзлаган тилим,
Бўзласа, халқим деб бўзлаган тилим,
Ун тўрт эл номидан гапирса ҳамки,
Ҳақиқатни топмай излаган тилим,
Мендан рози бўлинг, мени кечиринг.

Ёнимда йўқ эрур қавми қариндош,
На бирор меҳрибон, на бир қаламқош,
Ўзқўдагиларим, рози бўлинглар,
Эрта бу дунёдан олиб кетсам бош,
Мендан рози бўлинг, мени кечиринг!

Хосият БОБОМУРОДОВА,
Ўзбекистонда хизмат кўрсатган
маданият ходими.



Turmush chorrahalarida



- O'g'lim, ishdan qachon qaytasan?
Birga ovqatlanib, gurunglashib o'tirardik,
- Hikmat buva ishga o'tlanayotgan Nur-
bekka umidvor qaradi.

- Ota, men o'ynaganini ketayotganim
yo'q-ku, o'zingiz nevaralaringiz bilan
ovqatlanavering, hamma narsani mu-
hayyo qilib qo'yibman. Kelingizga
aytsangiz, istagan taomingizni pishirib
beradi. Bugun ishlar ko'p, kech qaytsam
kerak...

- Ha, bolam, Xudoga shukur ham-
ma narsa bor, hech nimaga zoriqqanim
yo'q. Ammo mehringga zorman, bolam.
Termulib, diydoringga to'ysam deymen,
- Hikmat buva og'ir xo'rsindi. - Mayli,
o'g'lim, boshing omon bo'lsin, yaxshi
ishlab kel!

Hikmat buva ilgari sezmagan ekan,
pensiyaغا chiqqach, yolg'izlik, farzandlar,
do'st-qadrdonlar diydoriga zorlik umrning
naqadar g'animat ekanligini his etdi. Ish-
lab yurgan paytlarda Saodat buvi kuzatib
qo'yar, Nurbek qachon ketib, qachon keli-
shi xayoliga kelmas, oilasidan ko'ngli to'q
edi. Endi esa hokisor, mehribon kampiri
yo'q. Nurbek, kelini ishga, nevaralar
maktabga, bog'chaga ketadi. Huvillagan
hovlida yolg'iz o'zi qoladi. Kechqurun
Nurbekni kutib ko'zlari to'rt bo'ladi. Xo-
nasida ishdan qaytgan o'g'lini "Ota, yax-
shimisiz, mana, men keldim", deb hol-ah-
vol so'rashini kutadi. Lekin bu o'g'ilning
xayoliga ham kelmaydi. Do'xtirga olib bor
desa, vaqtini yo'q deydi, dori desa, mana
pul, ana dorixona deydi. Xayr-ma'zurni
nasiya qilib erta ketadi, shirakayf bo'lib,
kechasi allamahalda qaytadi.

- Dadasi, keyingi kunlarda negadir
otangizning kayfiyati yo'q, - dedi Risolat
allamahalda ishdan qaytgan Nurbekka. -
Faqat sizni so'raydi, kirib birrov ko'nglini
ko'taring.

- Boshqa vaqt so'rayman, ko'rmayap-
sanmi, ozroq kayfim bor, do'stlar bilan
o'tirishdik...

Ammo boshqa kunlar ham vaqt top-
maydi, vaqt bo'lganida ulfatlar bilan

o'tirishdan qo'li bo'shamaydi. Uyga qayt-
ganda darvozaxonada kursida uxlamay
o'tirgan otasini ko'rib, g'ashi keladi.
- Keldingmi o'g'lim, charchamading-
mi?

- Charchadim, hadeb tergayverishin-
gizdan charchadim, tinch qo'yasizmi,
yo'qmi?

- Nega unaqa deyabsan, bolam?
- Uxlamasdan, meni so'roq qilish
uchun poylab o'tiribsizmi?

- Yo'g'-ye, shunchaki uyqum qochib,
toza havoga chiqib o'tirgan edim, bolam!
- Shunaqa deng. Shirakayf Nurbek
gandiraklab uyiga kirib ketdi. Mast bo'lsa
ham u otasi nega uxlamasdan o'tirganini
yaxshi bilardi: "Nima, men yosh bolaman-
mi?".

...Nurbek bugun ham uyga kech qayt-
di. Borliq sukunatga cho'mgan. Hamisha
ochiq, charaqlab turadigan darvozaxo-
na yopiq, qop-qorong'i, o'g'lini intizor
kutib o'tiradigan ota endi yo'q. Erinibgina
mashinadan tushib, darvozani taqillatdi:
"Zo'r o'tirish bo'ldi-da o'ziyam". Darvoza
ochilib chiroq yondi:
- Yana shu ahvolmi? - Risolat noro-
zi qiyofada darvoza tabaqasini ushlab
turardi.

Nurbek mashinani kiritib qo'ygach,
otasi o'tiradigan o'rindiqqa cho'kdi. Riso-
latga o'qrayib qaradi:

- Nega baqrayib turibsan, suv ber!
"Eh, qanday noshud o'g'ilman-a, u -
o'kinch bilan darvozaxonaga ko'z yugur-
tirdi. Qani o'sha mehrimga zor, uyqusiz
yo'limni poylab o'tiradigan otam?".

Nurbekning yurak band'i ezilib, alam-
dan ko'zlari yoshlandi. Umr g'animat,
jon omonat ekanligi xayoliga kelibdimi?
Hamma narsa bilan ta'minlab qo'yibman,
burchimni ado etdim, deb yuraveribdi.
Keksa ota farzandi mehriba, diydoriga
qanchalik zor bo'lganini endi tushundi:
"Nega har kuni hol-ahvolingizni so'rab,
suhbatingizni, duongichni olmadim otajon?!
Noshud o'g'lingizni kechiringi!".

Tog'aymurod SHOMURODOV.

Qiyinchilik, mehnat,

xarakter, natija:

«Dinamo»ning yorqin mavsumi

**Bu yil Samarqand haqiqiy futbol havosi bilan
yashadi. Mavsum davomida turli qiyinchiliklarga
qaramay, borini berib kurashgan «Dinamo»
championatning eng yorqin jamoalaridan biri
sifatida namoyon bo'ldi.**

Vadim Abramov boshchiligidagi jamoa oxirgi soniyalargacha
Superligada kumush medali uchun kurash olib bordi va yakunda
58 ochko jamg'arib, 25 yil avvalgi eng yaxshi natijasini takror-
lagan holda to'rtinchi o'rinni egalladi. Chempionlik muddatidan
oldin 64 ochko to'plagan «Nefchi»ga nasib etgan bo'lsa, «Pax-
takor» 60 ochko bilan kumush, «Nasaf» 59 ochko bilan bronza
medalini qo'lga kiritdi.

«DINAMO» SAFAR O'YINLARIDA TENGSIZ, FUTBOLCHILAR YILNING ENG YAXSHILARI QATORIDA

2025-yilgi mavsumda «Dinamo» safar o'yinlaridagi natijalar
bo'yicha Superligada tengsiz bo'ldi. Abramov shogirdlari meh-
mon sifatida o'tkazilgan 15 uchrashuvda 8 g'alaba, 5 durang
va 2 mag'lubiyat qayd etib, safarda 29 ochko jamg'ardi. Qizig'i,
jamoa uy o'yinlarida ham aynan shuncha ochko to'pladi.

Mavsum davomida «Dinamo» tarkibida bir qator yosh va
iqtidorli futbolchilarning o'yini alohida ajralib turdi. Ular orasida
20 yoshli Firdavs Abdurahmonov Superliganing eng yaxshi yosh
futbolchisi deb topildi. U joriy mavsum 23 uchrashuvda may-
donga tushib, 6 ta gol va 3 ta golli uzatma muallifi bo'ldi. Shu
nominatsiya ro'yxatida yana bir «dinamo»chi Oybek O'rmonjo-
nov ham qayd etildi. 21 yoshli markaziy himoyachi Jahongir



O'rolov esa mavsum-
da eng ko'p maydonda
bo'lgan futbolchilardan
biri sifatida (28 o'yin,
2521 daqiqa) milliy terma
jamoaga ilk bor chaqiruv
oldi va «Superliga-2025»
ramziy jamoasiga kiritildi.
Shuningdek, jamoaning
braziliyalik legioner futbol-
chisi Jurani Ferreira ham
ramziy jamoadan o'rin oldi.
«Dinamo» bosh murabbiyi
Vadim Abramov «Yilning eng
yaxshi murabbiyi», hujumchi Anvarjon Hojimirzayev esa «Yilning
eng yaxshi futbolchisi» nomiga nomzod sifatida ko'rsatildi.

FUTBOLCHILARNING TRANSFER BAHOSI HAM OSHDI

«Transfermarkt» portali ma'lumotlariga ko'ra, «Dinamo»
tarkibidagi deyarli barcha futbolchilarning transfer bahosi o'sgan.
Jamoa umumiy baholash bo'yicha 7-o'rinda qayd etilgan. Himoya-
chi Jaloliddin Jumaboev va yarimhimoyachi Behruzbek Obloqulov
Superligada transfer bahosi eng ko'p oshgan o'yinchilar orasida
TOP-10 likdan joy olgan. Jamoadagi eng qimmat futbolchilar
ro'yxatida Jahongir O'rolov – 600 ming yevro, Dmitriy Pletnyov
– 450 ming yevro, Ratino, Anvarjon Hojimirzaev va Xislat Xalilov
– 400 ming yevrolik bahosi bilan qayd etilgan.

ABRAMOV: «TARKIBNI SAQLAB QOLISHIMIZ KERAK»

Oliy liganing so'nggi turidan keyin Vadim Abramov mavsum
haqida fikr bildirib, jamoaning kelgusidagi rejalariga to'xtaldi.
— Mavsumni to'rtinchi o'rindan yuqoriroqda yakunlashimiz
va hatto kumush medalni qo'lga kiritishimiz mumkin edi, — dedi
V.Abramov. — Tarkibda yo'qotishlarimiz ko'p bo'ldi, jarohatlar
va moliyaviy muammolar qiynab qo'ydi. Muxlislarning jamoa-
dan xursand ekani quvontiradi, har holda ular uchun o'ynaymiz.
Futbolchilarda boshqa klublardan takliflar bor, ammo bularning
hammasi ham menga bog'liq emas. Samarqandga jamoa kerak
bo'lsa, biz qo'l ostimizdagi tarkibni saqlab qolishimiz kerak.

Superliganing joriy yilgi mavsumi tugagach, jamoalarga
20-dekabrgacha ta'til berilgan. Bu vaqt oraliqida klublar tarkibini
kuchaytirish va keyingi mavsumga tayyorgarlik ko'rish maqsadida
yangi bosh murabbiy va futbolchilar bilan shartnoma imzolamoqda
yoki shartnoma muddatini uzaytirmoqda. Jumladan, viodiy jamoa-
lari bu borada harakatlarni boshlab yubordi. Lekin viloyatimizning
bosh jamoasi yangi mavsumda qanday tarkib va qaysi murabbiy
qo'l ostida ishtirok etishi haqida ma'lumotlar berilmadi.

«Dinamo» 2025-yilgi mavsumda o'zining xarakterini, salohi-
yatini va yuksalishga qodir jamoa ekanini isbotladi. Bu natijalar
ortida esa bosh murabbiy Vadim Abramovning mehnati, tajribasi
va to'g'ri tanlovi turibdi. Murabbiy tarkibni shakllantirdi, yosh-
lar uchun imkoniyat yaratdi va jamoaga raqobatbardosh ruh
bag'ishladi. Agar klub shu yilgi mavsumda o'ynagan futbolchi-
lar bilan shartnomani uzaytirib, tarkibni saqlab qolsa va zarur
shartlar yaratib berilib, Abramovga ishonch bildirilsa, «Dina-
mo» kelgusi mavsumlarda ham yuqori o'rnlarni uchun kurash olib
boradi, degan umiddamiz.

Fazliddin RO'ZIBOYEV,
«Zarafshon» muxbiri.



МУАССИС: Самарқанд вилояти ҳокимлиги

Бoш муҳаррир: Фармон ТOШЕВ

Газета О'збекистон матбуот ва ахборот агентлигининг Самарқанд вилоят бoшқармасида
2012-йil 30-мартда 09-01 рақам билан ро'yxатга оlingан. Nashr 100. Индекс 438.
13 810 нусxada chop etildi. Buyurtma 578. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Газета haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Газета «Zarafshon» tahririyatining
kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand
shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:
soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi:
soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

Y.MARQAYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun
QR-kodni telefoningiz
orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda
narxi kelishilgan holda